

# KORXONALAR FAOLIYATIDA BUXGALTERIYA HISOBINING AHAMIYATI VA O'RNI

*Qutliyeva Maxliyo G'ulomovna*

Osiyo xalqaro universiteti

**Annotatsiya:** Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatida buxgalteriya xisobi vositasida asosiy va aylanma kapitallar xisobini tashkil etiladi. Mamlakatimizda buxgalteriya xisobini yuritish usullarining ilgor shakllarini xalk xujaligi tarmoklariga joriy etish yollarini ishlab chikilgan va amaliyotga joriy etilmokda. Barcha korxonalarda buxgalteriya hisobi mavjudir. Chunki korxonalar hisobi insoniyat uchun zarur bo'lgan iste'mol buyumlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqalarni ishlab chiqarish, taqsimlashni hisobga olish demakdir. har bir jamiyatning ham asosiy maqsadi zaruriy buyumlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlashdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun kishilar ijtimoiy hayotida sodir bo'layotgan voqeja va hodisalarini kuzatish, jamiyatda mayjud bo'lgan mehnat buyumlari, mehnat qurollarini, hamda mehnat jarayonlarini hisobga olib borish lozimdir.

**Kalit so'zlar:** bozor iqtisodiyoti, korxonalar hisobi, buxgalteriya, buxgalteriya hisobi.

## Kirish

Bozor iqtisodiyoti davrida korxonalar hisobi ahamiyati kuchaydi, chunki tovar ayirboshlash uchun umumiy ekvivalent talab etiladi. Umumiylar ekvivalentga esa faqat hisob-kitobni tahlil etish, to'g'ri yurgizish orqaligina ega bo'lish mumkin, ya'ni almashtiriladigan tovarni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat miqdorini aniqlash kerak bo'ladi. Ishlab chiqarish kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini o'sishi natijasida xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qilish murakkablashgan va moddiy ishlab chiqarish asosida vujudga kelgan buxgalteriya hisobi ahamiyati oshgan, jamiyat hamma sohalarida mulklarni hisobga olish borasidagi, iqtisodiy faoliyatini boshqarishdagi roli oshib borgan. Korxonalar faoliyatini boshqarish buxgalteriya hisobi orqali olingan ma'lumotlar asosida olib boriladi va tegishli qaror va qonun hamda qoidalar qabul qilinib, shular asosida butun xalq xo'jaligi faoliyati boshqariladi.

Buxgalteriya hisobi asosan qo'yidagi funksiyalarni bajaradi:

korxona, tashkilot va muassasalarda sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlarini kuzatib borish.  
kuzatish orqali olingan ma'lumotlarni miqdoriy ko'rsatmalarda ifodalash.

korxona, tashkilot, muassasa xo'jalik faoliyatlarini kuzatish natijalarini maxsus hujjatlarda qayd etish.  
maxsus aks hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlashtirish, xo'jalik jarayonlari ustidan nazorat o'rnatish va ularga ta'sir etish.

Buxgalteriya hisobini yuqorida funksiyalari ayrim korxona, muassasa va tashkilot va uy xo'jaligining iqtisodiy jihatidan asoslangan joriy va kelgusidagi reja ko'rsatkichlarini tuzishda, ular bajarilishini ustidan nazorat olib borishda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Korxonalarda yuritilayotgan hisob siyosati o'ziga xos prinsiplarga amal qilmog'i kerak.  
BXMSning birinchi sonida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning prinsiplari sifatida qo'yidagilar keltirilgan:

ikki yoqlama qayd etish usuli bilan hisob yuritish.  
uzluksizlik.  
xo‘jalik muammolari, aktivlar va passivlarni baholash.  
ishonchlilik.  
extiyotkorlik.  
mazmunning shakldan ustunligi.  
ko‘rsatkichlarning kiyesiyligi.  
moliyaviy hisobotning betarafligi.  
aktivlar va majburiyatlarning xaqiqiy bahosi.  
hisobot davri daromadlari va xarajatlarining mosligi.  
tushunarilik.  
ahamiyatilik.  
xolislik.

Mazkur prinsiplarga asoslanib yuritilgan buxgalteriya hisobi va tuzilgan moliyaviy hisobot barcha foydalanuvchilar korxona moliyaviy xo‘jalik faoliyati haqida to‘liq, tushunarli ma’lumot olishni va tegishli xulosa chiqarishni ta’minlaydi. Ikki yoqlama qayd etish usuli bilan hisob yuritish prinsipi xo‘jalik jarayonlarini schetlarda ikki yoqlama yozuv usulidan foydalangan holda aks ettirilishini bildiradi. Ushbu prinsipga ko‘ra, xo‘jalik jarayoni summasi bir schetning debeti va ikkinchi schetning kreditida aks ettiriladi.

Korxona faoliyatida uzluksizlik prinsip buzilish muhiti mavjud bo‘lsa, hisobotda beriladigan tushuntirish va izohlarda bu xakda ma’lumot keltirilishi lozim. Unda xo‘jalik yurituvchi subyetlarda xo‘jalik faoliyati davomida uzluksiz ravishda buxgalteriya hisobi yuritilishi shartligi yetadi. Korxona faoliyati tugaganida, buxgalteriya hisobini yuritish ham tuxtilatildi.

Xo‘jalik muomulalari, aktivlar va passivlarni baholash prinsipi korxona barcha mulkclarini va ro‘y beradigan barcha xo‘jalik jarayonlarini yagona pul bahosida o‘lchanishiga asoslangan. O‘zbekiston Respublikasida pul o‘lchovi so‘m va uning qismi tiyinda olib boriladi.

Moliyaviy hisobotni naqadar ishonchli bo‘lishi, buxgalteriya hisobi dastlabki xujjatlardagi ma’lumotlarni naqadar xaqqoni ekanligiga bog‘liqdir. Extiyotkorlik prinsipiga rioya etilganda moliyaviy hisobot shakllarida aktivlar va daromadlar bahosini oshirib va majburiyatlar hamda xarajatlar bahosini pasaytirib ko‘rsatilishiga yul qo‘yilmaydi.

Korxonalar ko‘rsatkichlarini qiyoslash xalq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha ma’lumotlarni jamlashda, tahlil etishda, solishtirishda kerak bo‘ladi. Shuningdek, tashqi foydalanuvchilar ular uchun kerakli bo‘lgan korxonalar ko‘rsatkichlarini qiyoslab olishlari uchun imkoniyat bo‘lishi shart. Bugungi kunda korxonalarini o‘tgan davr ko‘rsatkichlari bilan hisobot davrlari ma’lumotlarini taqqoslash shu korxona ichki boshqaruvi uchun ham zarurdir. Moliyaviy hisobotning betaravligi prinsipiga ko‘ra, hisob ishlarida xech qanday manfaatdorliklarga e’tibor bermaslik, g‘ayrli xatolarga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

- Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. Modern Science and Research, 2(10), 712-717.
- Abidovna, A. S. (2024). The Importance of Personnel Management in the Operations of an Organization. Miasto Przyszłości, 49, 971-975.



3. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch.
4. Рахматов, Ж. А., Алимова, Ш. А., & Бобомуродов, К. Х. (2021). Стратегия инвестиционной политики Республики Узбекистан.
5. Алимова, Ш. А. (2021). ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА КАК НОВЫЙ ЭТАП ГЛОБАЛИЗАЦИИ. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ, 234-238.
6. Alimova, S. (2024). NEW APPROACHES TO THE EFFECTIVENESS OF INTERACTION BETWEEN PROFESSIONAL EDUCATION AND EMPLOYERS. Modern Science and Research, 3(7), 211-218.
7. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. Gospodarka i Innowacje., 49, 211-217.
8. Bazarova, M. (2024). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. Modern Science and Research, 3(6).
9. Bazarova, M. (2024). FEATURES OF BANKING MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. Modern Science and Research, 3(6).
10. Хайитов, Ш. Н., & Базарова, М. С. (2020). Роль иностранных инвестиций в развитии экономики Республики Узбекистан. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 284-287).
11. Базарова, М. С., & Пулатов, Ш. Ш. (2019). Проблемы банковской системы узбекистана и пути их решения. Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации, 131-133.
12. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 582-586.
13. Базарова, М. С. (2021). ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЕЁ РАЗВИТИИ. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 350-354).

